



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№12 (822), 2026-yil 30-iyun

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Dolzarb mavzu

YOSH MUHANDISLAR KENGASHI

korxonaning ilmiy salohiyati, ishlab chiqarish darajasini belgilaydi

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning aksariyati izlanuvchan, kreativ fikrlaydigan yosh muhandislar va mutaxassislar hisoblanishadi. Ular o'z g'oya va takliflari bilan nimalarga qodirliklarini amalda isbotlab kelmoqdalar. Qolaversa, bu – korxonada xodimlar uchun yaratib berilayotgan sharoitlar bilan ham izohlanadi.

Har qanday korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion taraqqiyotga erishish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhandislar bilimi va hamjihatligiga bog'liq. Bu – bugungi kun talabidir! Kombinatta bunday imkoniyatlar yaratilgan. Keyingi yillarda korxonada ilmiy salohiyat, ixtirolar, innovatsion ishlanmalar, texnologik yechimlar, ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha jiddiy yutuqlarga erishilmoqda.

Kombinatning bir guruh muhandis va mutaxassislari tomonidan "Texnologik va ishlanishi murakkab bo'lgan oltin tarkibli ma'danlarni qayta ishlash va o'zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish" ilmiy ishlanmasi keltirgan iqtisodiy samaradorlik haqida yaxshi bilim. Bu ishlanma dunyo va O'zbekiston miqyosida tan olinib, xalqaro oltin medal, shuningdek, respublikamizda fan va texnika sohasida 1-darajali Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Ushbu loyiha asosida Germaniyaning "Engineering Dobersek GmbH" injiniring kompaniyasi

bilan hamkorlikda 3-gidrometallurgiya zavodida filtrlash, quritish va kuydirish sexi ishga tushirilgan zavodning oltin ajratib olish darajasini 17,25 foizga, qimmatbaho metall ishlab chiqarish hajmini 16,2 foizga oshirish, chiqindidan yilliga 1,5 tonna qo'shimcha oltin olish imkoniyatini yaratyapti. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Yaqinda kombinat rahbariyati yosh muhandislarni qo'llab-quvvatlash, ularning ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish, o'zaro hamkorligini ta'minlash, yaratuvchanlik qobiliyati bo'lgan yosh muhandislar, mutaxassislar uchun o'zaro hamkorlik, muloqot maydonini yaratish maqsadida xayriy ishga qo'l urdi. "NKMK" AJ huzurida Yosh muhandislar kengashi tashkil etildi. Bu orqali hamkasblarimizning texnologiyalar, muhandislik, innovatsiyaga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, ularning g'oya, tashabbus va loyihalarni qo'llab-quvvatlash va o'z izlanishlarini erkin olib borish uchun keng sharoitlarni yaratish maqsad qilingan.

Biz, rahbariyat tavsiyasi va qo'llab-quvvatlashi natijasida birinchi qadamni, eng avvalo, kengashning huquqiy asosini yaratishdan boshladik. Jumladan, "NKMK" AJning 2026-yil 31-martdagi "Yosh muhandislar kengashini tashkil etish to'g'risida"gi 246-sonli buyrug'i bilan kengash Nizomi va kengash tarkibi tasdiqlandi. Mazkur Nizomning 10 ta bobida kengashning maqsad-vazifalari, huquq va majburiyatlari, ishlash tartibi, g'oya va takliflarni ko'rib chiqish tartibi, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari hamda tarkibiy bo'linmalar bilan o'zaro hamkorligi aniq belgilab berilgan. Kengash tarkibiga bo'linmalardan 38 nafar eng salohiyatli a'zolar tanlab olindi. Tajribali mutaxassislardan iborat kengash a'zolari har bir loyihani sinchkovlik bilan baholab, eng ishtiqlik g'oyalarni saralaydi, ishlab chiqarishga tavsiya etadi.

Kengash tashkil etilishi iqtidorli muhandislarni kashf etish, ilmiy-amaliy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash, muhandislar orasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, eng muhim, hamkasblarimizning intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun yangi qadam bo'ldi. Bu, ularning eng yaxshi innovatsion g'oya, loyiha hamda ixtirolar yaratishiga zamin yaratadi. Bugun "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJda iqtisodiy samarador bunday loyihalarga talab o'ta yuqori.

Bu, hech shubhasiz, texnologik jarayonlarga innovatsion g'oyalari va zamonaviy muhandislik yechimlarni tadqiq etish, yosh mutaxassislarning ratsionalizatorlik va ixtirochilik faolligini oshirish, yosh muhandislar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kengaytirishni ta'minlaydi. Kengashimiz kelgusida o'z vazifasiga kreativ yondashib, zamonaviy texnologiyalar, yangi g'oya va yechimlar taklif qila oladigan iqtidorli yoshlarni tanlash, tarbiyalash, ularning g'oyalarni yuzaga chiqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yaratib berilgan imkoniyatlar esa, albatta, sun'iy intellekt, robototexnika, nanotexnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish va boshqa muhim yo'nalishlarda chuqur izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar olib borish, startaplar yaratish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish orqali kombinat iqtisodiy samaradorligini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

Ayni paytda kengash o'z ish faoliyatini boshlab yubordi. A'zolarining samarali ishlashi uchun kombinat O'quv markazida alohida xona ajratilib, barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. O'ylaymizki, zamonaviy g'oyalari asosida shakllangan innovatsion va muhandislik tafakkuri – kelajakda korxonamiz taraqqiyotining poydevori bo'ladi hamda ilmiy-texnologik salohiyatini yanada oshirish, texnologiyalarning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yo'lda, albatta, mas'uliyatni chuqur his qilib, izlansak, oldimizga qo'ygan maqsadga albatta erishamiz.

Davomi 2-betda

Xushxabar

"Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJning kredit reytingi bo'yicha prognozni "barqaror"dan "ijobiy"ga o'zgartirdi hamda emitentning uzoq muddatli reytingini "BB" darajasida tasdiqladi.

"NKMK" AJ: KREDIT REYTINGI YAXSHILANDI



Agentlikning ushbu qarori O'zbekiston Respublikasi suveren kredit reytingi bo'yicha prognoz yaxshilanganidan so'ng qabul qilindi.

Prognozning yaxshilanishi kompaniyaning barqaror moliyaviy ko'rsatkichlari, mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyati, shuningdek, korxonaning kreditga layoqatligi O'zbekiston Respublikasining suveren reytingi bilan chambarchas bog'liqligini aks ettiradi.

Mustaqillikning 35 yilligiga

"NKMK" AJ boshqarmasi, Markaziy kon boshqarmasi, Navoiy mashinasozlik zavodi va 3-gidrometallurgiya zavodida "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" g'oyasi asosida o'tgan "Mustaqillik to'yi" festivalida taniqli olimlar, adiblar, ziyolilar va ma'naviyat targ'ibotchilari ishtirok etishdi

UCHRASHUVLAR KO'TARINKI RUHDA O'TDI

Ushbu tadbirlarda mustaqillik, tinchlik qadri, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning mazmun-mohiyati, inson qadri va ulug'lash va jamiyatda hamjihatlik muhitini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tirof etildi.

Jumladan, kombinat boshqarmasida o'tgan "Shukronalik" ma'rifiy uchrashuvida tarix fanlar doktori, professor Abduxalil Mavrolov, O'zbekiston xalq hofizi Orolmirzo Safarov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zulfiya Mo'minova, "Nihol" mukofoti sovrindori Aziz Rajabiy, O'zbekiston davlat filarmoniyasi xonandasi Alisher Ro'zmetov, kinoaktyor Begzod Isxakov, "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyati boshqarmasi boshlig'i Naim Niyozovlardan iborat targ'ibotchilar o'z chiqishlari bilan ishchi-xodimlarni mamnun etishdi.

Ma'rifiy uchrashuvda "NKMK" AJ Boshqaruv raiisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov mustaqillik yillarida, ayniqsa keyingi yillarda mamlakatimizda misli ko'rilmagan o'zgarishlar, jumladan kombinat tomonidan erishilayotgan yutuqlarni alohida ta'kidlab o'tdi.

Navoiy mashinasozlik zavodida tashkil etilgan "Shukronalik" ma'rifiy uchrashuvida targ'ibot guruhi a'zolari ishchi-xodimlar bilan muloqot qilib, mustaqillik bergan ne'matlar, yurtimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, mamlakat taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati haqida fikr almashildi.

Turli millat vakillari mehnat qilyotgan Navoiy mashinasozlik zavodida "Mustaqillik to'yi" festivali o'ziga xos katta tayyorgarlik, ko'tarinki ruhda o'tdi, – deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zulfiya Mo'minova. – Taniqli san'atkorlar, aktyorlar, yozuvchi-shoirilar, olimlar, ma'naviyat targ'ibotchilari o'z chiqishlarida jamiyatda birdamlikni mustahkamlash, tinchlik va mustaqillik ne'matining qadri, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati haqida so'z yuritdi. O'ylaymizki, bunday ma'rifiy tadbirlar mustaqillikning ahamiyati, qolaversa, milliy qadriyatlar va boy ma'naviy merosimizni keng targ'ib etishga xizmat qiladi.

Markaziy kon boshqarmasida bo'lib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv ham ishtirokchi-

larda katta taassurot qoldirdi. Targ'ibotchilar mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylash borasida olib borilayotgan ishlar haqida so'z yuritdi. Targ'ibotchilar "Muruntov" koniga tashrif buyurib, mamlakatimiz sanoat qudratining ramziga aylangan ushbu yirik ishlab chiqarish majmuasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish borasidagi ishlarga guvoh bo'lishdi.

Bugungi ijodiy uchrashuv men uchun taassurotlarga boy bo'ldi. Safarim davomida Qizilqum sahrasi bag'ridagi "Muruntov" koni faoliyati bilan tanishdik, konchilar huzurida bo'ldik. Soha vakillari orasida muxlislarim ko'pligidan xursand bo'ldim. Ular meni olqishlab turgani san'atimga ilhom bag'ishladi. Ilohim, istiqlolimizga ko'z tegmasin, – deydi taniqli xonanda Iroda Iskandarova.

3-gidrometallurgiya zavodida o'tgan "Shukronalik" ma'rifiy uchrashuvida "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyati raiisi Baxtiyor Husanov, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Salohiddin Azizboyev, aktyor Xurshid To'xtayev, xonadamlar Iroda Iskandarova va Ali Niyazimbetovlarning chiqishlari davraga yanada fayz bag'ishladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati haqida ko'p eshitganmiz. Lekin shu korxonada ishlayotganlar, ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanish emasdik. Soha vakillari keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib berishdi. Haqiqatdan ham so'nggi o'n yilda konchilik va metallurgiya sohasida, konchilar maskani bo'lgan Uchquduqda juda katta o'zgarishlar bo'libdi. Buning barchasi, albatta, mustaqilligimiz, tinchligimiz hamda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasidir, – deydi "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Salohiddin Azizboyev.

Bir so'z bilan aytganda, bu tadbirlar kombinat ishchi-xodimlari uchun haqiqiy bayramga aylandi.

Zafarjon OLIMOV.

JANUBIY AFRIKAGA SAFAR

yoki o'zaro tajriba almashish bizga nima beradi?

Shu yilning 11-19-may kunlari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tashabbusi bilan yer osti kon ishlarida "Raqamli shaxta" hamda "Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida seysmik monitoring va kon zarbalari prognozi tizimi"ni amaliyotga joriy etish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish maqsadida kombinatning bir guruh rahbar-mutaxassislari Janubiy Afrika Respublikasida bo'lib qaytdi. Afrika qit'asida bo'lib qaytgan guruh tarkibida bo'lgan, Janubiy kon boshqarmasi direktori Tolliboy Yuldashevga safar taassurotlari haqidagi bir qancha savollar bilan yuzlandik.

– An'anaviy savol bermoqchiman: safar boshida oldingizga qo'ygan maqsadlarga erishdingizmi?

– Maqsadlarga erishishga intildik va erishdik, deb o'ylayman. Konchilik va metallurgiya sohasi – bu chuqur bilim, matonat va fidoyilikni talab etadigan tarmoq. Konlarda, boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodlari, energetika, transport va muhandislik sohalari hamda yordamchi korxonalarda mehnat qilyotgan har bir xodimning kombinat taraqqiyotidagi hisssasi beqiyos. Negaki, mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada taraqqiy etishida bu sohaning o'rni juda katta. Janubiy Afrika Respublikasiga qilgan safarimiz samarali bo'ldi. Chunki, bu mamlakat nafaqat Afrika qit'asida, balki jahonda konchilik va metallurgiya sanoati rivojlangan davlatlardan sanaladi. Shunday ekan, mazkur mamlakatdan ishlab chiqarish tajribalarini o'rganish va uni o'zimizda amaliyotga tatbiq etish biz uchun foydali.

– "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tashabbusi bilan amalga oshirilgan tajriba almashish safari nima uchun aynan Janubiy Afrika Respublikasiga qilindi?

– Janubiy Afrika Respublikasi shimolda Botsvana, Nabimiya, Mozambik, Svazilend va Zimbabve davlatlari, sharqda Lesoto qirolligi, g'arbda Atlantika, janub va sharqda Hind okeani bilan tutashib ketgan. Afrika qit'asidagi iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan mamlakatlardan. Iq-

tisodining asosini tog'-kon sanoati tashkil etadi. Mamlakatda oltin, uran, olmos, platina, xrom, ko'mir, temir rudasi, tabiiy gaz, marganes, nikel, qalay va fosfat singari qazilma boyliklar zaxiralari mavjud. JAR platina, oltin, xrom ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi sanaladi. Mamlakatda mashinasozlik, metallurgiya, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati ancha rivojlangan. Sanoat ishlab chiqarish yalpi ichki mahsulotning 40 foizini tashkil etadi. Metallurgiya sanoati yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini tashkil etadigan va platina, oltin, xrom ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri bo'lgan Janubiy Afrika Respublikasining tog'-kon sanoati tajribasini o'rganish biz uchun ham metodik, ham iqtisodiy jihatdan samaraliroq. Bundan tashqari, bu mamlakat tog'-kon sanoati bilan bizning shu sohamiz o'rtasida o'xshashliklar ham yo'q emas.

– Qanday o'xshashlik?

– Konchilik sanoati Janubiy Afrika Respublikasi iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan. Bu soha bizda ham strategik ahamiyatga ega. Chunki, tabiiy resurslarga boy ikkala mamlakat ham ushbu boyliklardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatiga ega. Bu borada biz o'xshashmiz.

Yana bir jihatga e'tibor bering. Har ikkala mamlakat mineral resurslar zaxiralari bo'yicha dunyoda muhim o'rin tutadi. Konchilik mahsulotlari har ikkala davlatning eksport tushumlarida

katta ulushga ega. Ayniqsa, oltin eksportidan valuta tushumini ta'minlaydi. Konlarning chuqurlashtirib borishi va qazib olish xarajatlarning oshishi innovatsion texnologiyalarni jalb qilishni talab etadi. Ya'ni, yangi texnologiyalarga ehtiyoj darajamiz ham o'xshash. Chunki, "Zarmitan" konining chuqurligi ming metrga, Janubiy Afrika Respublikasidagi "Harmony Gold" kompaniyasining "Mponeng Gold Mine" shaxtasining chuqurligi qariyb 4 ming metrga yetdi. Bu esa ortiqcha chiqimlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ortiqcha harajatlarni kamaytirish uchun ikkala mamlakat ham yangi innovatsion texnologiyalarni sohaga joriy etishga intilib kelmoqda.

– Afrika qit'asi safariga yana kimlar borishdi va qayerlarda bo'ldingiz?

– Guruhimiz tarkibi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Innovatsion rivojlanish bo'yicha direktori Bahridin Bozorov, kombinat geomexanika xizmati boshlig'i Ma'rufjon Bobayev, "G'ujumsoy" koni boshlig'i Marat Nuraliyev hamda men bilan to'rt kishidan iborat edi. Biz Gauteng provinsiyasining ma'muriy markazi, megapolis shahar – Yoxannesburgda bo'ldik. Oltin izlovchilar tomonidan 1886-yilda asos solingan bu shahar bugunga kelib, Janubiy Afrika Respublikasining iqtisodiy va moliyaviy provayderi sanaladi. Chunki 4 million nafardan ortiq kishi yashaydigan Yoxannesburg shahri sanoati mamlakat yalpi ichki mahsulotining 16 foizini ta'minlaydi. Shaharda bir qancha tog'-kon metallurgiya sanoati korxonalarining qarorgohlari joylashgan.

Biz 1950-yilda asos solingan "Harmony Gold" oltin qazib olish kompaniyasining "Mponeng Gold Mine" shaxtasida bo'ldik. 1986-yildan buyon foydalanilib kelayotgan shaxtaning chuqurligi 3 ming 840 metrga yetadi. Bir qarashda oddiy shaxtaga o'xshasada, aslida u muhandislik mo'jizasi, inson matonati, ilmiy kashfiyotlar va ulkan sinovlar ramzidir.

Davomi 2-betda

Dolzarb mavzu



YOSH MUHANDISLAR KENGASHI

korxonaning ilmiy salohiyati, ishlab chiqarish darajasini belgilaydi



Oxiri. Boshlanishi 1-betda

O'tgan shanba kuni Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zalida Yosh muhandislar va Yosh konstruktorlar kengashlari a'zolari, universitetning yosh olimlari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Qizg'in bahs-munozara asosida o'tgan yig'ilishda kengash faoliyatini har tomonlama jonalantirish yuzasidan fikr-mulohazalar o'rta taga tashlandi, yaqin kelgusida amalga oshirilishi zarur vazifalar belgilab olindi.

Kengash, bu – muayyan masalalarni birgalikda muhokama etish va qaror qabul qilish uchun tuzilgan kollegial organ hisoblanadi. Kengash faoliyatida yosh muhandislar ilmiy-texnik bilim va ko'nikmalarini, muammolarga

innovatsion yechimlar topish salohiyatini oshirish, ular uchun innovatsion muhitni shakllantirishga e'tibor qaratamiz. Yoshlarning muhandislik ishlanmalarini kreativligi, innovatsion yondashuvi, loyihaning amaliyotga tatbiq etilishi, ilmiy asosliqligi, ijtimoiy va ekologik ahamiyati, taqdimot sifati mezonlari bo'yicha baholab boramiz. Muhimi, yaratilayotgan loyihalar faqat nazariy g'oya darajasida qolmay, balki amaliyotga joriy etilishi bilan ahamiyatli bo'ladi va kelajakda kombinat ko'rsatkichlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qahramon XASANOV,
"Navoiy KMK" AJ
Yosh muhandislar kengashi raisi.

JANUBIY AFRIKAGA SAFAR

yoki o'zaro tajriba almashish bizga nima beradi?

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

– Demak, "Mponeng Gold Mine" yer osti koni dunyodagi eng chuqur hamda noyob shaxta ekanda?

– Albatta! "Mponeng" koni yer ostiga qariyb 4 kilometr chuqurlikka kirib boradi. Shaxtaning eng quyi nuqtasiga yetib borish uchun konchilar shaxta kletida bir soatdan ortiq vaqt sarflaydilar. Ish unumdorligini oshirish va vaqtdan unumli foydalanish maqsadida klet tezligi soniyasiga 15 metrga dasturlangan. Aslida, yer qariyga soniyasiga 15 metr tezlikda tushish noyob hodisa sanaladi. Xavfsizlik talablaridan kelib chiqib, har bir klet eshigi uning chiqish qismini to'liq yopadigan qilib yaratilgan.

Shaxtaning chuqur qatlamlarida harorat 66 darajagacha yetadi. Bunday sharoitda qulay ish sharoitini yaratish uchun muhandislar o'ziga xos ikki xil: sovuq havo purkash va muzli dush hosil qilish – sovutish tizimini yaratganlar. Sovuq havo purkash usulida muzli suv kon ichidagi ulkan radiatorlar (issiqlik almashgichlar) ichidan o'tadi. Ulkan ventilatorlar esa havoni radiatorlar orqali haydab, yer osti kon lahmlariga yuboradi. Muzli dush hosil qilishda esa, asosiy ventilyatsiya yo'laklarida sovuq suv maxsus injektorlar orqali havoga purkaladi. Yer yuzasidan kelayotgan issiq havo shu "dush" ichidan o'tish jarayonida keskin soviydi va sovigan havo ish joyiga yetkaziladi. Ya'ni, har kuni kompaniya mutaxassislari 6 ming tonna muz ishlab chiqarishadi. U maxsus tuz aralashmasi bilan qorishtirilib, shaxta ichiga yuboriladi. Bu tizim havo haroratini 30°C atrofida ushlab turishga yordam beradi. Shamollatish tizimlari va sun'iy bo'shliqlar sovuq havoni butun shaxta bo'ylab tarqatib, ishchi hududlarda haroratni 28 darajagacha saqlaydi.

Bundan tashqari muhandislar kon bosimi ta'sirida kelib chiqadigan tog' jinslarining qulashi va seysmik faollik sabab yuzaga kelgan muammoni bartaraf etish uchun o'ziga xos mikroseysmik kuzatuv tizimini yaratishgan. Yuqori sezuvchan mikroseysmik qurilmalar chuqurlik 12.5 metr bo'lgan gorizontal burg'ilangan skvajinalarga o'rnatilgan bo'lib, ular shaxta maydoni mikroseysmik harakati signallarini aniqlaydi hamda ularni analog kuchlanishli signallarga o'g'ir beradi. Bu signallar mikroseysmik ma'lumotlarni yig'ish punktida jamlanadi va analog signalni keyinchalik stansiyaga yuborish uchun raqamli signalgacha aylantiradi. Yig'ilgan signallarni korxonaning dispetcherlik xizmatidagi kompyuterga yuboradi.

Mikroseysmik monitoring ishlari Avstraliyaning "IMS" kompaniyasi tomoni-

dan pudrat shartnoma asosida amalga oshiriladi. Mazkur konda bu ishlarni bir guruh mutaxassislar amalga oshirib kelishadi. Mutaxassislarning uch nafari aynan seysmolog sanalishadi. Konning 3 ming 840 metrlik chuqurligini hisobga olgan holda har 100-200 metr oralikda o'rnatilgan 78 dona yuqori sezuvchan mikroseysmik qurilmalardan iborat mikroseysmik kuzatuv tizimi o'rnatilgan.

Har yili bu yerda 1 million 600 ming tonna ruda qazib olinadi. Janubiy kon boshqarmasining yer osti konlaridan esa, yiliga 1 million 634 ming tonna ruda qazib olinadi.

– Haqiqatan ham noyob yer osti koni ekan. Janubiy afrikalik konchilar yer osti harorati bilan bog'liq muammoni oqilona bartaraf etishdi. Toza havo bilan bog'liq masalalar qanday yechilgan?

– Qizig'i shundaki, "Mponeng" konining chuqurlik tobori ortib bormoqda. Yaqin kelajakda uni 4 ming 270 metrgacha chuqurlashtirish rejalashtirilgan. 2024-yilda "Harmony Gold" kompaniyasi konning xizmat muddatini 2045-yilgacha uzaytirishini ma'lum qilgan va modernizatsiya ishlariga 410 million AQSh dollari mavjudida sarmoya kiritgan. Bu o'z navbatida xarajatlarni kamaytirish va munosib ish sharoitlarni yaratishni talab etadi.

Ayni paytda yer osti konida ishlash jismoniy va ruhiy jihatdan katta sinov hisoblanadi. Konchilar maxsus himoya kiyimlari, anjomlari va favqulodda holatlarda nafas olish apparatlari bilan ta'minlangan. Bir smena 10 soatgacha davom etadi. Avtomatlashtirish jarayonlariga qaramay, bu yerda 5 ming 156 nafar ishchi mehnat qiladi.

"Mponeng" koniga 2 ta asosiy ko'taruvchi vertikal stvol orqali tushiladi. Ular yer yuzasidan ishchilar, materiallar va qazib olingan ma'danni ma'lum bir oraliq chuqurlikka tashib beradi. Konda yana 2 ta yordamchi xizmat ko'rsatish stvoli mavjud bo'lib, aynan ular shaxtani toza havo oqimi bilan ta'minlaydi, sovutish tizimlari va boshqa texnik kommunikatsiyalar uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari konda yana bitta ko'r (er osti) stvoli ham mavjud bo'lib, u yer yuzasiga chiqmaydi, balki asosiy stvolning tugagan joydan boshlanib, konni yanada chuqurroqqa – 3,84 kilometrlik eng pastki nuqtalargacha bog'laydi.

Janubiy Afrika Respublikasida shaxta texnologiyalari ancha rivojlangan bo'lib, konchilik sanoati yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan.

– "Mponeng" konida yana nimalar e'tiboringizni tordirdi?

– E'tiborimni tortgan narsa yuqori kon bosimi alomatlari, tez-tez yuz beradigan zilzilalar tufayli yer osti kon lahmlarini soz va yaroqli holatda saqlash maqsadida birgalikda ishlaydigan uch bosqichli kombinatsiyalashgan mustahkamlash tizimi qo'llanilishi bo'ldi. Shuningdek, yer osti kon lahmlarini mustahkamlash usullari ham meni qiziqitirib qo'ydi. Ularda yer osti kon lahmlarini mustahkamlashda shurga yuqori bosim ostida quvur kiritilib mustahkamlanadigan friksion ankerlardan foydalanilmoqda. Bu anker tog' jinsi bilan butun uzunligi bo'ylab ishqalanish hosil qiladi va qatlamlar surilishining oldini oladi. Juda mustahkam qatlamlarni ushlab uchun shpur ichiga polimer ampula joylashtiriladigan va armatura buralib kiritilganda qotib, mustahkam holatga keladigan po'latpolimer ankerlardan ham foydalanilisharkan. Shuningdek, uzunligi 6 metrdan 10 metrgacha bo'lgan po'lat katnatlar chuqur burg'ilangan skvajinalarga sement qorishmasi bilan qotirish usuli - katnatlar ankerlar eng xavfli va katta ko'ndalang kesimli kon lahmlari shiftilarida ishlatilarkan. Ular katta og'ir yuklamani ko'tara oladi.

Shaxtada yer osti kon lahmlarini mustahkamlashda to'qilgan rombsimon, payvandlangan po'lat, yuqori mustahkamlikdagi po'lat simli hamda polimer va tolali to'rlarning turlaridan foydalanilmoqda.

Janubiy Afrikalik hamkasblarimizning yangi tajribalaridan yana biri kon lahmidagi o'rnatilgan metall arkasimon mustahkamlikdagi orqa qismini to'ldirish uchun maxsus qopplardan foydalanib, to'ldirish sanaladi. Kon lahmlarini mustahkamlashda kon lahmi devori bilan mustahkamlikdagi orasidagi bo'shliqlar ichiga tez qotuvchi qorishma to'ldirilgan maxsus qoplar joylashtirilib to'ldiriladi. Ichiga tez qotuvchi qorishma to'ldirilganidan keyin qop shishib, bo'shliqni to'ldiradi hamda tog' jinsi bilan to'g'ridan-to'g'ri kontakt hosil qiladi. Bu esa, ishchilar xavfsizligini ta'minlashda juda muhim.

Ular ankerli mustahkamlikdagi mustahkamlash, maxsus qorishmani shpurlarga jo'natish uchun Germaniyaning "Hermann PAUS Macchinenfabrik GmbH" ishlab chiqaruvchisining maxsus yordamchi texnikasidan foydalanishmoqda. Qizig'i, bu texnika manipulyatorlari shpurlarni avtomatik burg'ilaydi va polimer smola quyishdan oldin ichini yuqori bosimli havo va suv bilan chang va tosh bo'laklaridan tozalaydi. Texnika boriga o'rnatilgan maxsus nasos va uzatish shlanglari yordamida tez

qotuvchi ikki komponentli smola qorishmasi bosim ostida shpurning eng to'rigacha yuboriladi. Smola yuborilgandan so'ng, mashina shpur ichiga po'lat ankerni avtomatik ravishda kiritadi va aylantirish orqali smolani aralastirib, bir necha soniyada qotiradi.

– Gaplargizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki "Mponeng" oddiy kon emas, u sohani rivojlantirish texnologiyalari laboratoriyasi ekan. Aytinchigi, biz ulardan o'rganadigan va amaliyotda qo'llaydigan jihatlar ham bormi?

– Albatta! Janubiy kon boshqarmasi tarkibidagi yer osti konlarida Janubiy Afrika Respublikasi konlari tajribasini amaliyotga tatbiq etish mumkin. Bu borada kombinatda maxsus dastur ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etish ishlari boshlab yuborildi. Masalan, kon boshqarmamizda maxsus o'qitilgan xodimlardan iborat o'z monitoring guruhini tuzishda Avstraliyaning "IMS" mintaqaviy mikroseysmik monitoring tizimi bilan hamkorlikni tashkil etish hamda respublika seysmik prognozlash monitoring markazining mutaxassislarini jalb qilish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, shaxtalarda xavfsizlikning asosiy modeli – "real-time monitoring", mikroseysmik prognoz, shamollashtirish va raqamli xavfsizlik tizimlarini birlashtirgan "Smart safety mine" – "Raqamli xavfsiz shaxta" konsepsiyasini amalga oshirish dasturi ishlab chiqilmoqda.

Janubiy kon boshqarmasi quyosh elektr stansiyalari va suvni qayta ishlab tizimlarini joriy etish orqali uglerod gazini kamaytirish borasida talay ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ekologik va tejamlor iqtisodiy rejalarini amalga oshirishda Janubiy Afrika Respublikasidagi "Harmony Gold" kompaniyasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yisak, yaxshi bo'lardi.

Janubiy Afrika Respublikasi va O'zbekiston konchilik sohasida muhim resurs bazasiga ega bo'lgan davlatlar hisoblanadi. Janubiy Afrika Respublikasi uzoq yillik tajriba, xususiy sektor faolligi va yuqori texnologik darajasi bilan ajralib tursa, O'zbekiston boy mineral resurslari, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati", "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatlari singari yirik korxonalar va jadal islohotlari bilan e'tiborni tortadi. Ikkala mamlakatning tajribasini o'zaro o'rganish va hamkorlikni kuchaytirish konchilik sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi aniq.

Suhbatni Mansur HUSANOV yozib oldi.



YURT RAVNAQIGA KAMARBASTA BO'LISH BAXTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yildan e'tiboran 30-iyun respublikamizda Yoshlar kuni sifatida nishonlanib kelmoqda. Ana shu sana arafasida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati yoshlar yetakchilari Kengashi raisi Timur Qalandarov bilan suhbatlashdik. U kombinat yoshlari amalga oshirayotgan ishlar haqida quyidagilarni so'zlab berdi.



– Har qanday mamlakat kelajagi ko'p jihatdan yoshlarga e'tibor, ularning ilm olishi, kasb-hunar egallashi, iqtidorini ro'yobga chiqarishi uchun yaratilgan sharoitga bog'liq. O'zbekistonda, jumladan "NKMK" AJda yoshlar har tomonlama g'amxo'rlik bilan qurshab olinganligi bois ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida erishayotgan yutuqlari quvonchli bo'lmoqda. Ulkan korxonada ahlil jamoasining qariyb to'rtadan bir qismini yosh yigit-qizlar tashkil etishi kombinatda yoshlar katta kuch ekanligidan dalolat beradi. Kombinat tizimida 2026-yilda yoshlarga

oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha 7 ta ustuvor yo'nalish va 40 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi izchil bajarilmoqda. O'tgan davrda To'dako'l dam olish maskanida joylashgan Xalqaro shaxmat maktabida 82 nafar faol yetakchilar ishtirokida o'quv-amaliy seminar tashkil etildi. "Seminar bir kitob" loyihasida kitobxonlik aksiyasi e'lon qilindi, yoshlar yetakchilaridan tashkil topgan jamoalar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. Seminarning yakuniy kunida kombinat bosh direktori Quvondiq Sanaqulovning yoshlar bilan uchrashuvida ularni

qiziqtirayotgan masalalar, yechimini kutayotgan muammolar xususida fikr-mulohazalar o'rta taga tashlandi.

Payshanba-yoshlar kuni deb e'lon qilinishi munosabati bilan va kombinat yosh ishchi-xodimlarining ishlab chiqarish hamda ijtimoiy sohalaridagi takliflarini o'rganish maqsadida korxonada va bo'linmalar rahbarlarining yoshlar bilan uchrashuvlarini o'tkazish an'anaga aylanmoqda. Ikki ming nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan shunday uchrashuvlarda aksariyat muammolar bevosita joyida hal etilib, ma'lum muddat talab etiladiganlari yuzasidan Yo'l xaritalari belgilanib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Ma'lumki, sport, madaniy-ma'naviy tadbirlarni tashkil etish yoshlar bilan ishlashda asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi. Joriy yilning 30-aprel – 2-may kunlari kombinat bo'linmalari yosh ishchi-xodimlari o'rtasida sportning gandbol turi bo'yicha "NKMK bosh direktori kubogi" turniri 9 ta jamoa ishtirokida, qizg'in sport kurashi ostida o'tdi. Shuningdek, "Sportni sev, sport bilan yasha!" shiori ostida futbol, voleypol, stol tennis, yengil atletika bo'yicha musobaqalar tashkil etilib, sport bellashuvlarida 1 ming 500 nafardan ortiq yoshlarimiz qamrab olindi. 12-14-iyun kunlari Navoiy shahridagi "So'g'diyona" o'yinohida kombinat bo'linmalarida mehnat qilayotgan yosh ishchi-xodimlar o'rtasida mini-futbol bo'yicha musobaqa tashkil etildi. Uch kun davom etgan qizg'in bahslar yakuniga ko'ra, "Qizilqum" kon boshqarmasi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, ku-



bok sohibiga aylandi. Markaziy kon boshqarmasi ikkinchi, Janubiy kon boshqarmasi esa uchinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

"Men buyuk ajdodlar avlodim" loyihasi doirasida o'tkazilgan ma'rifiy tadbirlar kombinat yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirish, ularni azaliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimizning boy merosiga hurmat va sadoqat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Yoshlarimizning "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekoaksiyalar, shuningdek, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shahri, Zarkent qo'rg'oni, Paxtachi tumanlaridagi qabristonlar, ziyoratgohlar, masjidlar hududlarini tozalash va obodonlashtirish borasidagi ishlari ham maqto'vga arzigulikdir. Yuz nafardan ortiq yoshlar mart oyining dastlabki o'n kunligida qalb amri bilan Orol dengizi hududida saksovil ko'chatlari o'tqazishdek xayrli ishlarida faol ishtirok etdilar.

Yoshlarimiz ichki turizmni rivojlantirish, ijtimoi-

iy himoyaga muhtoj oilalar, yolg'iz keksalar, nogironlarni ijtimoiy himoyalash, donorlik aksiyalari kabi ishlarda ham faol qatnashmoqdalar. Eng muhimi, kombinatning yosh ishchi-xizmatchilarining korxonada ahlil jamoasi tarkibida respublikamiz iqtisodiy qudratini oshirishga qo'shayotgan hissalarini beqiyosdir. Ularning ishlab chiqarishga joriy etilayotgan innovatsion g'oyalari, ratsionalizatorlik va ixtirochilik takliflari katta iqtisodiy samara keltirmoqda. Kombinatlarda yoshlar korxonada shuhratini oshirish, yaratib berilgan shart-sharoitlardan oqilona foydalanib, erishilayotgan yutuqlarni yanada ko'paytirish yo'lida bundan buyon ham bor bilim va imkoniyatlarini to'la safarbar etadilar. Zero, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mehnat qilib yurt ravnaqiga kamarbasta bo'lish har birimiz uchun katta baxtdir.

Nizomiddin SADRIDDINOV suhbatlashdi.

■ Bugunning gapi



“YASHIL IQTISODIYOT” YO’LIDAGI DADIL QADAMLAR



Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida sanoat korxonalarini faoliyati nafaqat ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy samaradorlik, balki atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy mas’uliyat mezonlari bilan ham o’lchanadi. Shu ma’noda, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ekologik barqarorlikni ta’minlash, xalqaro ESG (Ekologiya, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillarini joriy etish hamda “yashil iqtisodiyot” talablariga mos faoliyat yuritish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida keng qamrovli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar, shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi, “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish strategiyasi hamda iqlim o’zgarishiga qarshi milliy dastur sanoat korxonalarini zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklamoqda. NKMK ushbu vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib, ekologik boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida bosqichma-bosqich takomillashtirib bormoqda.

Kombinatning bu boradagi eng muhim yutuqlaridan biri - 2025-yilda “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi tomonidan ilk bor korporativ ESG reytingi bilan baholanganidir. Natijada, NKMK O’zbekiston tog’-kon sanoatida ESG reytingini olgan birinchi kompaniya bo’ldi. Bu nafaqat ekologik va ijtimoiy mas’uliyat sohasida amalga oshirilayotgan ishlarga berilgan munosib baho, balki xalqaro miqyosda kombinat faoliyatiga bo’lgan ishonchning yorqin ifodasidir. Zero, zamonaviy korporativ siyosat aynan ESG tamoyillariga tayanadi. Bunda, ekologik siyosat kompaniyaning atrof-muhitga (Environmental) qanchalik xavfsiz ekanligini baholovchi asosiy ko’rsatkich hisoblanadi.

Ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida, keyingi yillarda kombinatda qator muhim chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, “SRK Consulting” kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib olish (RGMP) hamda sianidlar bilan ishlash bo’yicha xalqaro kodeks (ICMC) talablariga muvofiqlik auditi o’tkazildi.

Bundan tashqari, iqlim xavflarini baholash ishlari ham izchil olib borilmoqda. Misol uchun, 2023-2024-yillar uchun issiqxona gazlari emissiyasi qayta hisob-kitob qilinib, kombinatning dekarbonizatsiya strategiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek, mehnat muhofazasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, bioxilma-xillik hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikka oid qator ekologik korporativ siyosat dasturi ham tasdiqlandi. Buning barchasi bugun kombinatda ekologiyaga bo’lgan munosabatni tubdan o’zgartirib, strategiyani ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, 2026-2028-yillarga mo’ljallangan ekologik realbiyotlash maqsadiga erishish uchun antropogen ta’sirni kamaytirish dasturining ishlab chiqilgani sohamizda yangi qadam bo’ldi.

Issiqxona gazlari emissiyasi, bu - inson faoliyati (sanoat, transport, energetika) va tabiiy jarayonlar natijasida atmosferaga karbonat angidrid, metan va azot oksidi kabi gazlarning chiqarilishidir. Bu gazlar quyosh nurini o’tkazib, Yerdan qaytayotgan issiqlikni tutib qoladi va global isish hamda iqlim o’zgarishlarini keltirib chiqaradi.

De karbonizatsiya strategiyasi esa, bu - iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish maqsadida atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid va boshqa issiqxona gazlari hajmini bosqichma-bosqich qisqartirish va kamaytirishga qaratilgan kompleks rejadir. Kombinatning qabul qilingan strategiyasida muqobil va qayta tiklanuvchi energiyaga o’tish, energiya samaradorligini oshirish borasida sanoat korxonalarini va binolarda energiya sarfini kamaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan. Yashil transportni rivojlantirish orqali elektromobillar va gidrid transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish, iqlimni muhofaza qilish loyihalari bo’yicha atmosferadagi zararli gazlarni yutish uchun daraxtzorlarni ko’paytirish va karbonat angidrid chiqindilarini ushlab qoladigan innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish kabi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.



Global iqlim o’zgarishlariga moslashish va “yashil iqtisodiyot”ga o’tish uchun ishlab chiqilgan ekologik korporativ siyosat kombinatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan majburiyatlarini va strategiyasini o’zida mujassam etib, korxonaning barqaror rivojlanish konsepsiyasini asosini tashkil etadi. Bu siyosat chiqindilarni

qayta ishlash orqali tabiatga ta’sirini kamaytirish, energiya tejamliligini, ya’ni, energiya iste’molini optimallashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol) foydalanishga o’tish, suv va xomashyo resurslarini asrash va tejash hamda yashil maydonlarni kengaytirishni ko’zda tutadi.

Bu kabi sa’y-harakatlar investor va jamoatchilik orasida kombinatga bo’lgan ishonchni oshirishi bilan birga xarajatlarni qisqartirishga xizmat qilmoqda. Energiya va suvni tejash, chiqindilarni qayta ishlash korxonaga moliyaviy foyda keltirib, ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlaydi.

ATMOSFERAGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARNI KAMAYTIRISH – MUHIM VAZIFA

Kombinat faoliyati bevosita yirik korxonalarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat. Shu bois, atrof-muhit muhofazasi va atmosferaga ta’sirini kamaytirish asosiy diqqat-markazida turadi. Hozirda korxonalariga o’rnatilgan 263 ta chang-gaz tozalash uskunalarining chang-gazlarni tutib qolish darajasi 95-99 foizgacha bo’lishini ta’minlamoqda. Bu ko’rsatkich jahon amaliyotidagi ekologik talablarga javob beradi.

Birgina, 2025-yilda beshita yangi chang-gaz tozalash uskunasi ishga tushirildi. Shu bilan birga, gidrometallurgiya zavodlarida mavjud tozalash tizimlarini modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 7-gidrometallurgiya zavodi, Marjonbuloq oltin ajratish sexi hamda Navoiy mashinasozlik zavodida chang-gaz tozalash quurilmalari o’rnatildi.

Bu sa’y-harakatlar o’z natijasini bermoqda. Misol uchun, 2023-yilda chang-gaz tozalash uskunalarini orqali 1,1 ming tonna ifloslantiruvchi modda ushlab qolingani bo’lsa, 2024-yilda bu ko’rsatkich 1,4 ming tonnadan oshdi, 2025-yilda esa natijadorlik 1,7 ming tonnaga yetdi. Bu ko’rsatkichlar tozalash quurilmalaridan foydalanish tufayli atmosferaga chiqadigan chang-gazlar hajmi yildan-yilga qisqarib borayotganidan dalolatdir. Shuningdek, konlarda muntazam ravishda chang bostirish, namlash ishlari amalga oshirila-

yotgani ham ekologik holatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ekologik monitoring tizimini takomillashtirish maqsadida, 2026-yilda kombinatning atrof-muhitga ta’siri yuqori bo’lgan obyektlari hududida 7 ta stasionar kuzatuv posti – “fon stansiyalari” o’rnatildi. Bundan tashqari, avtomatik atmosfera havosini monitoring qilish stansiyalari tarmog’i kengaytirilib, zamonaviy “AFEX DM5200” va “AFEX G8000” rusumli uskunalar ishga tushirildi. Bu esa havo sifati bo’yicha ma’lumotlarni onlayn tarzda qabul qilish va ekologik nazorat samaradorligini yanada oshirish, atmosfera havosi sifati holatini muntazam kuzatish, fon konsentratsiyalarini baholash va ifloslanish manbalarini tahlil qilish imkonini beradi. Joriy yilning yakuniga qadar yana 33 dona stasionar kuzatuv postlari o’rnatilishi rejalashtirilgan.

SUVNING HAR QATRASINI QADRLI

Kombinatda suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo’yicha ham

saqlab qolishdek ulug’ maqsadga ham xizmat qilmoqda.

“YASHIL BELBOG’” VA “YASHIL HUDUD”LARNI KENGAYTIRISH — DAVR TALABI

Ekologik barqarorlikni ta’minlash, bioxilma-xillikni saqlash va “yashil hudud”larni kengaytirish hozirgi global iqlim o’zgarishi davrida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada mamlakatimizda keng quloq yo’qan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlarga guvohimiz. Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham bu loyihada faol ishtirok etib, yashil maydonlarni ko’paytirish, “yashil belbog’lar”ni barpo etish bo’yicha keng ko’lamli ishlarni olib bormoqda. Jumladan, Karmana tumani M-37 xalqaro avtomobil yo’li bo’yida 111 gektar, 1-gidrometallurgiya zavodi chiqindi saqlash omborining sanitariya-muhofaza zonasida 14 gektar va Tomdi tumani hududida 5 gektar maydonda “yashil belbog’lar” tashkil etildi. Ush-



tizimli ishlar yo’lga qo’yilgan. Korxonalarda suvni qayta ishlash, aylanma suv ta’minotini kengaytirish, shaxta va kon suvlaridan samarali foydalanish hamda tomchilatib sug’orish texnologiyalarini joriy etishga katta ahamiyat berilmoqda.

Birgina, 2025-yilda kombinatning umumiy suv iste’molida qayta ishlangan suvlar ulushi 34 million kubometrni (29 foizni) tashkil etdi. Bu esa tabiiy suv resurslarini tejash va ekologik ta’sirlarni kamaytirish borasida muhim natija hisoblanadi.

Keyingi yillarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish tufayli kombinatning suvga bo’lgan ehtiyoji ham ortdi. Xususan, bugungi kunda 2 va 7-gidrometallurgiya zavodlarida aylanma suv hajmi 11 million kubometrni, Markaziy kon boshqarmasida ochiq va yer osti konlaridan olinadigan suvlar hajmi 1,3 million kubometrni tashkil etadi. Zarafshon shahar oqova suv tozalash inshootlaridan 2,5 million kubometr tozalangan suv ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qayta yo’naltirilmoqda.

Shuningdek, 5-gidrometallurgiya zavodida aylanma suv hajmi 1,2 million kubometrni, 4-gidrometallurgiya zavodi va Marjonbuloq oltin ajratish sexida 1,4 million kubometrni, 1- va 6-gidrometallurgiya zavodlarida esa 2,9 million kubometrni tashkil etmoqda. Uchquduq shahar oqova suv tozalash inshootlaridan chiqqan, tozalangan suvlar ham ishlab chiqarish jarayonlariga samarali jalb etilmoqda.

So’nggi yillarda olib borilgan ishlar natijasida “Auminzo-Amantoy” koni hamda “Sharqiy” konining oshxonalaridan chiqqan oqova suvlarni tozalash uchun inshootlar ishga tushirildi. Ularda tozalangan suvlardan “yashil hudud”larni sug’orish va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanilmoqda.

6-gidrometallurgiya zavodida esa maishiy oqova suvlarni tozalash va ulardan qayta foydalanish tizimi joriy etildi. Qayta ishlangan suvlar Alisher Navoiy nomli bog’ daraxtlarini sug’orishga yo’naltirilib, suv resurslaridan oqilona foydalanishning samarali namunasi bo’lib xizmat qilmoqda.

Bugun NKMKda suv resurslarini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar faqatgina ishlab chiqarish barqarorligini oshirish emas, balki kelajak avlodlar uchun sog’lom tabiiy muhitni

bu hududlarda 155 ming tupdan ziyod manzarali daraxt va buta ko’chatlari ekildi. Eng muhimi, ularni parvarishlash uchun tomchilatib sug’orish texnologiyalari joriy etildi. Mutaxassislar fikricha, bu “yashil belbog’lar” nafaqat cho’l hududlarida ekologik muhitni yaxshilashga, balki shamol eroziyasi va chang ko’chishining oldini olishga ham xizmat qiladi. Nurota tumani “Pistali” koni sanoat maydonida tashkil etilgan 165 gektarlik Alisher Navoiy nomidagi bog’ hudud ekologik muhitini yanada yaxshilashiga sabab bo’ldi. U yerda hududning iqlimi quruq va issiqqilish hisobga olinib, manzarali daraxt va buta ko’chatlari o’qazildi. Cho’l hududida daraxtlarning rivojlanishi uchun tomchilatib sug’orish tizimi joriy etilgan.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekilgan 420 ming tupdan ortiq manzarali daraxt va buta ko’chatlari maxsus elektron platformaga kiritildi. Bundan tashqari, kombinat korxonalarini hududlaridagi besh yoshdan oshgan daraxtlarning elektron pasportlarini joriy qilish ishlari olib borilmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati bugungi kunda ekologiya sohasidagi ilg’or tajribasini xalqaro miqyosda namoyish etib kelmoqda. Xususan, yaqinda Qozg’istonning Ostona shahrida bo’lib o’tgan Markaziy Osiyodagi eng yirik ekologik tadbirlardan biri – “Eco Expo Central Asia-2026” ko’rgazmasida ilk bor ishtirok etib, ekologik toza texnologiyalari va innovatsion yechimlarini namoyish qildi. Shuningdek, kombinat tomonidan GRI xalqaro standarti asosida tayyorlangan “Barqaror rivojlanish hisoboti” jamoatchilikka taqdim etildi. Bu tajriba nufuzli tadbir ishtirokchilari va xalqaro ekspertlarda katta qiziqish uyg’otdi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo’nalishida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar kelajakka qo’yilgan dadil qadamdir. Bu sa’y-harakatlar korxonaning jahon standartlariga mos ravishda rivojlanib, “yashil taraqqiyot” tamoyillari hayotga izchil tatbiq etilayotganining yorqin namunasi hisoblanadi.

Xayrullo BAQOYEV,
“NKMK” AJ Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va ekologiya departamenti bo’lim boshlig’i.

■ **Xotin-qizlar faoliyatidan**



Mamlakatimiz taraqqiyotida xotin-qizlar muhim o'rin tutadi. Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan oqilona siyosat, islohotlar zamirida xotin-qizlarimizni hayotidan rozi qilib, turmush darajasini oshirish uchun keng imkoniyatlarni yaratishdek ezgu maqsadlar mujassam. Yuksak e'tibor va g'amxo'rlik tufayli bugun mo'tabar onalarimiz, dilbar opa-singillarimiz baxtli va baxtiyor, farovon hayot kechirmoqda. Yaratganning buyuk mo'jizasi, go'zallik timsoli, vafo va sadoqat ramzi bo'lgan hamkasb xotin-qizlarimiz mehr-muhabbati, mehnatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

HAR JABHADA FAOL VA FIDOYI!

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida jonkuyar opa-singillarimiz olti ming nafarni tashkil etadi. Hamkasblarimizning 41 nafari davlat mukofotlari, 4 nafari "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni sohiblari hisoblanishadi. Ular ishlab chiqarishning barcha jabhalarida, jumladan, geologiya, konchilik, metallurgiya, energetika, transport, mexanika, qurilish, standartlashtirish, moliya-iqtisod va boshqa yo'nalishlarda ellik ming kishilik ahil jamoa bilan bir safda fidokorona mehnat qilishmoqda.

Kombinat rahbariyatining sa'y-harakati bilan 2025-yil sentabr oyida "NKMK" AJ Markaziy apparatida Gender tenglik va inklyuzivlik xizmat tashkil etildi. 11 ta yirik tarkibiy bo'limlarda jamoatchilik asosida xotin-qizlar Kengashlari faoliyat ko'rsatib kelaypti. Gender tenglik xizmatining yo'lga qo'yilganligi xotin-qizlar faoliyatini muvofiqlashtirish, muammolarini o'rganish va hal etishni ta'minlamoqda.

Joriy yil biz uchun har tomonla quvonchli bo'ldi. Hamkasb xotin-qizlarimiz yutuqlari yuksak darajada e'tirof etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra, 1-gidrometallurgiya zavodi kran mashinisti Oliyabrigitova "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. Opaning ko'p yillardan buyon 18 metr balandlikda, 80 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega ko'priklarni mohirlik bilan boshqarib, texnologik uskunalarining asosiy qismlarini o'rnatish, tushirish, qayta yuklash va tashish hamda gidrometallurgiya kompleksining kapital ta'mirlash jarayonidagi murakkab ishlarni bajarib kelayotgani munosib baholandi.

Yutuqlarimizdan yana biri, bu – "NKMK" AJ Oliy Majlis Senati tomonidan tashkil etilgan "Gender tenglik faoli" milliy tanlovida "Gender tenglikni ta'minlashda respublika darajasidagi eng faol davlat organi" nominatsiyasiga sazovor bo'lganidir. "Qoraqot'on" koni ishchisi Hafiza Boymurodova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoniga sazovor bo'lgan bo'lsa, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan "Yil ayoli" milliy tanlovi respublika bosqichida Shimoliy kon boshqarmasi Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi mikrobiologiya guruhi rahbari Ramiliya Rangova "Yilning eng yangi g'oyalar tashabbuskori" nominatsiyasi, Navoiy mashinasozlik zavodi operatori Dilobar Ergasheva "Kombinatning oltin ayoli – 2026" ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Kombinat xotin-qizlarining iste'dodini yuzaga chiqarish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda "Yil ayoli", "Kombinatning oltin ayoli", "Kitobxon oila", "Ibratli oila" kabi tanlovlar, "Sport - nafislik va salomatlik manbai" shiori ostida shaxmat, shashka, voleybol, stol tennis bo'yicha turnirlar, "Zakovat" intellektual o'yinlari o'tkazib kelinayotgani ijobiy natijasini bermoqda.

Bundan tashqari, "Oila mustahkamligi - kelajak poydevori", "Ilm va ayol: barqaror jamiyat sari", "Ilmi ayol - jamiyat ko'zguisi" mavzularida seminarlar, "Oila mustahkamligi uchun barchamiz mas'ulimiz", "Mas'uliyatli ota-onalik", "Tenglik va hurmat" va "O'zbekiston bo'ylab sayohat qill" loyihalari doirasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirilyapti. "Biz – oiladagi zo'ravonlikka qarshimiz!" huquqiy targ'ibot tadbirlari,

"Milliy libos - millat qiyofasi, inson ko'ri" shiori ostida o'tkazilgan "Atlas, adras – millatimiz faxrii" tadbirlari hamkasbalarimizning yetakchi va tashabbuskorligi, zukko va oqilaligi, mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir yutuq e'tibor va rag'batga bog'liq. Kombinat ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelmoqda, munosib ish va yashash sharoitlarini yaratib bermoqda.

Kombinat malakali ishchi-xodimlar va mutaxassislarni kasbga tayyorlaydigan o'quv markazlariga ega. Kasbga o'qitish, malaka oshirish imkoniyatlaridan xotin-qizlarimiz ham bahramand bo'lishyapti. Joriy yilning shu davriga qadar 515 nafar xotin-qizlarimiz malaka oshirishdi. Bu esa o'z-o'zidan ularning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish imkonini beradi.

Kombinatimiz xotin-qizlari uchun xorij amaliyotlarini o'rganish va tajriba almashishi uchun ham imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Yaqin kunlarda besh nafar xotin-qizlarimiz "Gender tenglik va inklyuzivlikka yevropacha yondashuv" mavzusida Chechiya Respublikasida o'tkaziladigan o'n kunlik o'quv-seminarida ishtirok etishadi.

Yangi O'zbekiston kelajagi yo'lida xizmat qilish, kombinatimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shish har birimiz uchun yuksak sharaflar, muqaddas burch hisoblanadi. Biz, bu mas'uliyatni chuqur his etib, yuksak faxr va iftixor bilan mehnat qilamiz.

Nigora AMONOVA,
"NKMK" AJ Gender tenglik va inklyuzivlik xizmati bosh mutaxassisi.

■ **Madaniyat muassasalarida**

"QIZILQUM OVOZI" – KATTA SAHNAGA ELTUVCHI YO'L

NKMK madaniyat muassasalari o'z tarixida yuzlab iste'dodlarni tarbiyalagan. Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi ularni qo'llab-quvvatlab, turli tanlovlar orqali katta sahnalarda iste'dodlarini namoyish etishga sharoit yaratib bermoqda. "Qizilqum ovozi" estrada qo'shiqchiligi ko'rik-tanlovin o'tkazishda ana shunday maqsad mujassam.

o'tishdi. Va nihoyat orziqib kutilgan hayajonli daqiqalar yetib keldi. Sahnada boshlovchilar birin-ketin g'olib va sovrindorlar ro'yxatini e'lon qilishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, "Farhod" madaniyat saroyi xonandasi Zuhra Sattarova birinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, "Uch-



Shu yilning 12-13-iyun kunlari Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyi muxlislar bilan gavjum bo'ldi. "Qizilqum ovozi - 2026" XV estrada qo'shiqchiligi ko'rik-tanlovida yosh iste'dodlar, yangi ovoz sohiblari o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

Ushbu tanlovni o'tkazishdan asosiy maqsad - estrada yo'nalishida ijod qilayotgan yosh talantlarni aniqlash, iste'dodini qo'llab-quvvatlash, kombinat ishchi-xodimlari va qo'shiq muxlislariga madaniy hordiq bag'ishlashdan iboratdir. Shu davrga qadar mazkur tanlov yosh ijrochilarning san'at olamida o'z o'rnini topishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi, - deydi "Farhod" madaniyat saroyi direktori Oybek Rahmatov.

Tanlovda Navoiy shahridagi "Farhod", Zarafshon shahridagi "Oltin vodi", Uchquduq shahridagi "Uchquduq" madaniyat saroylari, Nurobod shahridagi "Nurobod", Zarkent qo'rg'onidagi "Konchi" va Zafarobod qo'rg'onidagi "Yoshlik" madaniyat uylari, Paxtachi tumanidagi "Shodlik" madaniyat klubida faoliyat olib borayotgan 20 nafar yosh estrada qo'shiqlari ijrochilari o'z mahoratlarini namoyish etdilar.

Ishirokchilarning har bir chiqishini madaniyat va san'at sohasining taniqli namoyandalari - O'zbekiston xalq artisti Avaz Rajabov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Kozim Qayumov, Ruslan G'afarov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Alisher Madrahimov hamda "Do'stlik" ordeni sohibi Faxriddin Samatovlardan iborat nufuzli hakamlar hay'ati xolisona baholab borgan tanlov nufuzini yanada oshirib yubordi.

Ushbu tanlovga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rilgan mahorat egalari saralashda qiyinchilik tug'dirmadi. E'tiborli jihati, yosh ijrochilarning aksariyati Qizilqum sahrasida mehnat qilayotgan konchilarning farzandlaridir, - deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti dotsenti Kozim Qayumov.

Ikki kun, bu - katta maqsad va orzular bilan kelgan iste'dodlar uchun sinov onlari bo'ldi. Ular qo'shiq muxlislari, nufuzli hakamlar oldida navbatdagi imtihondan

quduq" madaniyat saroyi xonandasi Gulshan Jo'raqulova ikkinchi, "Nurobod" madaniyat uyi xonandasi Shaxzod Janayev va "Navro'z" madaniyat klubi xonandasi Baxtiyor Hamroyevlar uchinchi o'ringa sazovor bo'lishdi.

G'oliblar tanlov tashkilotchilari tomonidan diplomlar, qimmatbaho sovg'alalar va rag'batlantiruvchi mukofotlar bilan taqdirlandi. Shundan so'ng tanlov g'oliblari va mehmon san'atkorlar ishtirokida konsert dasturi taqdim etildi.

Ma'lumot o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda NKMK o'zining zamonaviy madaniyat muassasalariga ega. Navoiy shahridagi "Farhod", Zarafshon shahridagi "Oltin vodi", Uchquduq shahridagi "Uchquduq" madaniyat saroylari, shuningdek, "Nurobod" va "Konchi" madaniyat uylari, "Shodlik" madaniyat klubidagi 170 dan ortiq badiiy jamoa va to'garaklarda besh ming nafarga yaqin iste'dodlar tarbiyalanmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi hamkorlikda ushbu maskanlarning samarali faoliyat olib borishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab kelayapti.

Ular orasidan davlat mukofoti sovrindorlari, xalqaro va respublika tanlovlari g'oliblari yetishib chiqqani quvonarlidir. "Nihol" davlat mukofoti, "Do'stlik" ordeni sohibi Sherzod Davronov, "Do'stlik" ordeni va "Shuhrat" medali sohibi Serjan Janaxmetov, "Do'stlik" ordeni sohibi Firuz Musayeva, "Shuhrat" medali sohibi Marina Xaritonova va boshqalar ushbu madaniyat muassasalarida tarbiyalanib kamolga yetgan, elga tanilgan iste'dod egalari.

Shubhasiz, "Qizilqum ovozi - 2026" XV estrada qo'shiqchiligi ko'rik-tanlovi ishtirokchilari orasidan ham etangi kunning mashhur san'atkorlari, xalq mehri qozonadigan yangi yulduzlar yetishib chiqadi. Zero, katta sahnaga olib borilgan yo'l aynan shunday ijodiy maydonlardan boshlanadi.

Azamatz ZARIPOV.

■ **"101" xabar qiladi**

DOLZARB 30 KUNLIK MUVAFFAQIYATLI O'TDI

Yurtimizda 2026-yilning may oyida favqulodda vaziyatning oldini olish bo'yicha "Dolzarb 30 kun" o'yli o'tkazildi. Shu ni quvonch bilan ta'kidlash kerakki, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati, "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi, "Navoiyuran" davlat korxonasi obyektlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinib, oylik betalafot o'tishiga erishildi.

"Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida Janubiy kon boshqarmasi va Navoiy sanoat maydoni obyektlarida favqulodda vaziyatlar profilaktikasi bo'linmasi inspektorlari tomonidan ishlab chiqarish bo'linmalarining sex va uchastkalarida yong'in xavfsizligi bo'yicha tekshiruvlar o'tkazildi. Tekshiruv davomida mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar berilib, zarur chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ishchi-xizmatkirlarga favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakat qilish tartibi va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha tushuntirishlar berildi. Ishlab chiqarish korxonalaridagi radio tarmoqlari hamda hududda o'rnatilgan elektron monitorlardan yong'in xavfsizligini targ'ib etuvchi eshittirishlar berildi hamda video rolklar namoyish etildi. O'ylik davomida o'tkazilgan targ'ibot-tashviqot ishlari, profilaktika tadbirlari va amaliy mashg'ulotlar natijasida korxonada hamda tashkilotlarda xodimlarning yong'in va favqulodda vaziyatlar-

ning oldini olish borasidagi bilim va ko'nikmalari mustahkamlandi. Ishlab chiqarish obyektlarida mavjud xavf omillarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi. Shuningdek, korxonada rahbariyati va ma'sul xodimlarga yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etish, birlamchi yong'in o'chirish vositalarining soz holatda saqlanishini ta'minlash, evakuatsiya yo'laklari va chiqish eshiklarini doimo ochiq holda foydalanishga tayyor holda tutish yuzasidan tavsiyalar berildi. Kelgusida ham favqulodda vaziyatlarning oldini olish, fuqarolar hayoti va mol-mulkini muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi. Zero, xavfsizlik talablariga rioya qilish har bir fuqaroning burchi va mas'uliyatidir.

Yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlar oldini olish ularni bartaraf etishdan ko'ra oson va samaraliroqdir. O'zingiz va atrof-dagilarning hayoti xavfsizligi uchun doimo hushyor va ehtiyotkor bo'ling. O'zingiz va yaqinlaringizning hayoti va sog'lig'iga befarq bo'lmang.

Qayim HASANOV, Elyor SAMATOV, Xurshid ERGASHEV, JKB va NSM OFVB FVP bo'linmasi inspektorlari.

■ **Sport**

QUVONCHLI NATIJALAR

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi ahil, professional jamoasi so'nggi o'n yillikda loyiha va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, nostandart avtomatlashtirish vositalarini tayyorlash, o'rnatish va ishga tushirishda katta natijalarga erishdi.



Ayniqsa, izlanuvchan va intiluvchan mutaxassislarning sa'y-harakati bilan import o'rnini bosuvchi va mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilishi valuta mablag'larini iqtisod qilish imkonini bermoqda. Jamoaning investitsion loyihalardagi faol ishtiroki, fidokorona mehnati yuksak e'tirofga loyiq.

Erishilayotgan yutuqlarda Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasi ishchi-xodimlarining munosib hisssasi bor, - deydi laboratoriya boshlig'i Ikrom G'aniyev. - Bugun hamkasblarimiz nafaqat ishlab chiqarish, balki sport sohasida ham yutuqlarga erishib kelmoqda. Misol uchun, yaqinda mini-futbol bo'yicha xo-

Aziz BEKIROV.

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV

Tahririyat manzili:
210100,
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Sptamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Nasiba SHAMURATOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 11200 nusxada chop etildi. Buyurtma № 250. 2026-yil 29-iyun 17:00 da chop etishga topshirildi.